JADIDCHILIK MA'RIFATPARVARLIGI VA "UCHINCHI RENESSANS" KONSEPSIYASINING NAZARIY-METODOLOGIK UYG'UNLIGI

Xaydarova Dilorom Abduxamidovna
xaydarovad2112@gmail.com
Qo'qon davlat universiteti

Annotatsiya: Maqolada jadidchilik ma'rifatparvarligi va Yangi O'zbekistonda ilgari surilayotgan "Uchinchi Renessans" konsepsiyasining nazariy-metodologik uyg'unligi tarixiylik, tizimlilik, davomiylik va qiyosiy tahlil tamoyillari asosida yoritilgan. Jadidlarning ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya, matbuot, til va ayollar masalasidagi qarashlari Uchinchi Renessansning asosiy yo'nalishlari bilan solishtirilib, ularning mushtarak g'oyaviy asoslari hamda tarixiy-ijtimoiy farqlari aniqlangan. Tadqiqot natijasida jadidlar merosi Uchinchi Renessansning bevosita tarixiy-ma'naviy ildizi sifatida talqin etilishi mumkinligi asoslangan, merosni bugungi ta'lim va madaniyat siyosatiga tatbiq etish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: jadidchilik, ma'rifatparvarlik, Uchinchi Renessans, usuli jadid, Yangi O'zbekiston, ta'lim-tarbiya, ma'naviy meros, modernizatsiya, nazariy-metodologik asos

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL COMPATIBILITY OF JADID ENLIGHTENMENT AND THE CONCEPT OF THE "THIRD RENAISSANCE"

Khaydarova Dilorom Abdukhamidovna
xaydarovad2112@gmail.com
Kokand State University

Abstract: The article examines the theoretical and methodological compatibility of Jadid enlightenment and the concept of the "Third Renaissance" advanced in Uzbekistan, relying on the principles of historicism, systematic analysis, continuity and comparative study. The Jadids' views on education, upbringing, the press, language and the women's question are compared with the main directions of the Third Renaissance, and their shared ideological foundations and historical-social differences are identified. The study substantiates that the Jadid legacy can be interpreted as the direct historical and spiritual root of the Third Renaissance and offers practical proposals for applying this legacy in contemporary education and cultural policy.

(cc) BY

Keywords: Jadidism, enlightenment, Third Renaissance, new-method school, New Uzbekistan, education and upbringing, spiritual heritage, modernization, theoretical and methodological basis

Kirish

Bugungi kunda O‘zbekiston ijtimoiy-gumanitar fanlarida milliy taraqqiyotning tarixiy ildizlarini aniqlash, o‘tmish tajribasini zamonaviy islohotlar bilan o‘zaro bog‘lab tahlil qilish dolzarb vazifalardan biriga aylangan. Prezident Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan Uchinchi Renessans g‘oyasi mamlakatni ilm-fan, ta’lim, madaniyat va ma’naviyat asosida yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqishni ko‘zda tutadi [2; 3]. Bu g‘oya Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham o‘z ifodasini topgan [4; 5]. Shu nuqtai nazardan Uchinchi Renessansning tarixiy davomiyligini asoslash, uning nazariy-metodologik poydevorini aniqlash tadqiqotchilar oldidagi muhim masaladan biridir.

Uchinchi Renessansning ildizlari haqida gap ketganda, odatda IX-XII asrlardagi Birinchi Renessans ya’ni Al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino va XIV-XV asrlardagi Ikkinchi Renessans Amir Temur va temuriylar davri, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Jomiy, Zaxriddin Muhammad Bobur kabi tarixiy shaxslar nomi esga olinadi. Biroq bu ikki davr o‘rtasida ham, undan keyingi davrda ham xalqimiz ongida ilm-ma’rifat va taraqqiyotga intilish uzilib qolmadi.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan jadidchilik harakati aynan shunday intilishning navbatdagi yorqin ifodasidir. Jadidlar mustamlaka va jamiyatdagi turg‘unlik sharoitida millatni ilm, ta’lim va madaniyat orqali yangilashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Shu jihatdan ularning faoliyati Uchinchi Renessans konsepsiyasiga bevosita tarixiy zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi shundaki, jadidchilik ma’rifatparvarligi va Uchinchi Renessans konsepsiyasi o‘rtasidagi nazariy-metodologik uyg‘unlikni aniqlash hamda jadidlar merosini zamonaviy islohotlar jarayonida qo‘llashning ilmiy asoslarini yoritishdan iborat. Belgilangan maqsadni amalga oshirish doirasida quyidagi ilmiy vazifalar belgilab olindi. Renessans tushunchasining nazariy-metodologik mazmun-mohiyatini ochib berish; jadid ma’rifatparvarligining asosiy g‘oyaviy-tamoyiliy xususiyatlarini tizimli ravishda tahlil qilish; Renessans va jadid ma’rifatparvarligi hodisalari o‘rtasidagi mushtaraklik hamda tafovutlarni qiyosiy tahlil asosida aniqlash; tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, mazkur jarayonlarning zamonaviy ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyotdagi ahamiyatini yoritishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi

Jadidchilik masalasi mustaqillik yillarida mamlakatimiz tarix, adabiyotshunoslik, pedagogika va falsafa fanlarida keng o‘rganildi. Birinchi pezidentimiz I.A.Karimov

(cc) BY

jadidlarni xalq ozodligi va ma’rifati yo‘lida fidoyilik ko‘rsatgan millat farzandlari sifatida yuksak baholagan, ularning merosini o‘rganish zarurligini ta’kidlagan [8]. M.Behbudiy, A.Avloniy, A. Fitrat kabi mutafakkirlarning asarlari nashr etilib, ilmiy muomalaga kiritildi [9; 10; 11]. Milliy uyg‘onish davri adabiyoti va jadid ziyolilarining faoliyati B.Qosimov va boshqa olimlar tomonidan tizimli yoritilgan [12]. Xorijiy tadqiqotlardan A.Xalidning jadidchilikni Markaziy Osiyodagi musulmon madaniy islohotchiligi sifatida tahlil qilgan asari va uning sovet davridagi milliy chegaralanish jarayoniga bag‘ishlangan tadqiqoti alohida o‘rin tutadi [13; 14].

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda jadidchilik ko‘proq tarixiy, adabiy yoki pedagogik hodisa sifatida o‘rganilgan bo‘lib, uni Uchinchi Renessans konsepsiyasi bilan nazariy-metodologik jihatdan bog‘lash masalasi yetarlicha chuqur tahlil etilmagan. Ushbu maqola mana shu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuvlar qo‘llanildi: tarixiylik tamoyili hodisalarni o‘z davri sharoitida baholash; tizimli yondashuv jadidchilik va Uchinchi Renessansni ilm, ta’lim, madaniyat, davlat siyosati kabi o‘zaro bog‘liq elementlar majmuasi sifatida ko‘rish; qiyosiy tahlil ikki hodisaning maqsad, vosita va natijalarini solishtirish; davomiylik va yangilanish tamoyili merosning zamonaviy sharoitga moslashuvini aniqlash); hermenevtik yondashuv, ya’ni matnlarni o‘z davri va bugungi kun nuqtai nazaridan talqin qilish [15].

1. Renessans tushunchasi va Uchinchi Renessans konsepsiyasining nazariy mazmuni

Renessans fransuzcha qayta tug‘ilish tushunchasi dastlab Yevropa madaniyati tarixiga nisbatan qo‘llangan bo‘lsa-da, keyinchalik ilm-fan va madaniyatning keskin yuksalishi kuzatilgan istalgan davrni ifodalovchi umumiy kategoriya sifatida qo‘llana boshlandi. Sharq tarixshunosligida bu tushuncha islom olamidagi ilmiy-madaniy gullab-yashnash davrlariga nisbatan ham ishlatiladi. O‘zbekiston ilmiy-siyosiy diskursida esa Renessans yurt hududida yuz bergan ilmiy-ma’naviy yuksalish bosqichlarini ifodalovchi tushuncha sifatida ishlatiladi.

Uchinchi Renessans konsepsiyasining nazariy mazmunini quyidagi to‘rt asosiy qoida belgilaydi. Birinchidan, taraqqiyotning asosiy omili sifatida inson, uning bilimi va ijodiy salohiyati olinadi. Ikkinchidan, ilm-fan va ta’lim davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilanadi. Uchinchidan, ajdodlar merosiga tayanish bilan birga jahon sivilizatsiyasi yutuqlarini o‘zlashtirish zarurligi ta’kidlanadi. To‘rtinchidan, taraqqiyot jamiyatning ma’naviy yangilanishi bilan uzviy bog‘liq holda ko‘riladi [2; 3]. Bu qoidalar konsepsiyaning ta’lim, ilm-fan, madaniyat va yoshlar siyosatiga oid hujjatlarda ham izchil aks etishini ko‘rsatadi [4; 6; 7].

Nazariy nuqtai nazardan Uchinchi Renessansni modernizatsiya, madaniy davomiylik va ma’naviy yangilanish tushunchalarining sintezi sifatida talqin qilish mumkin. Modernizatsiya jihati institutlar, texnologiyalar va iqtisodiy modelni

(cc) BY

yangilashni anglatsa, madaniy davomiylik jihati milliy o‘zlikni saqlash va ajdodlar merosiga tayanishni bildiradi. Ma’naviy yangilanish esa bu ikki jarayonni qadriyatlar darajasida uyg‘unlashtiradi. Aynan shu uchlik jadidchilik falsafasining ham yadrosini tashkil qilgan edi.

2. Jadidchilik ma’rifatparvarligining asosiy tamoyillari

“Jadid” so‘zi arabcha “yangi” ma’nosini anglatadi. Harakatning nomi ham “usuli jadid”, ya’ni savod o‘rgatishning yangi usulidan kelib chiqqan. Bu usul Qrimda Ismoilbek Gaspirali tomonidan joriy etilib, Turkistonda Munavvar qori Abdurashidxonov, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy va boshqalar tomonidan rivojlantirildi. Gaspiralining “tilda, fikrda, ishda birlik” shiori turkiy dunyo ziyolilarining umumiy dasturiy g‘oyasiga aylandi.

Jadid ma’rifatparvarligining asosiy tamoyillarini quyidagicha tizimlashtirish mumkin.

Birinchi tamoyil - ta’limni jamiyat taraqqiyotining asosi deb bilish. Avloniy tarbiyaning millat hayoti uchun nechog‘li hal qiluvchi ekanini “hayot yoki mamot, najot yoki halokat” masalasi sifatida qaraganida ifodalagan [10]. Bu qarash ta’limga strategik, millat taqdirini belgilovchi omil sifatida yondashuvni bildiradi.

Ikkinchi tamoyil - ta’lim mazmuni va usulini yangilash. Jadid maktablarida savod chiqarishning tovush usuli, sinf-dars tizimi, jug‘rofiya, hisob, tarix, tabiiy fanlar, rus va boshqa chet tillari o‘qitildi. Maxmudxo‘ja Behbudiy o‘z darsliklarida jug‘rofiya va umumiy bilimlarni o‘qitishga alohida e’tibor qaratdi [9]. Bu bilan diniy bilimlar bilan dunyoviy fanlar bir-biriga qarshi qo‘yilmadi, aksincha, ularning uyg‘unligi targ‘ib qilindi.

Uchinchi tamoyil - ma’rifatni matbuot, nashriyot va teatr orqali ommalashtirish. “Samarqand” gazetasi va “Oyna” jurnali, “Sadoyi Turkiston”, “Turon” kabi nashrlar, Behbudiyning “Padarkush” dramasi bilan boshlangan milliy teatr jamoatchilik fikrini shakllantirishning samarali vositasiga aylandi. A.Fitratning “Munozara”, “Oila” kabi asarlari ham ma’rifiy g‘oyalarni keng ommaga yetkazdi [11].

To‘rtinchi tamoyil - milliy o‘zlikni saqlagan holda taraqqiyot sari intilish. Jadidlar na eskilikka berilib qolishni, na o‘zgalarga ko‘r-ko‘rona taqlid qilishni qo‘llab-quvvatladi. Ular milliy til, madaniyat, diniy-axloqiy qadriyatlarni saqlab, zamonaviy fan va texnikani o‘zlashtirishni taklif etdi [13].

Beshinchi tamoyil - jamiyatning barcha qatlamlarini, jumladan ayollarni ham ma’rifatga jalb etish. Jadid ziyolilari qizlar maktablarini ochish, ayollarning savodxonligi va oila tarbiyasidagi rolini oshirish g‘oyasini ilgari surdi.

Abdurauf Fitratning oila va tarbiya haqidagi qarashlari bunga misol bo‘la oladi.

Oltinchi tamoyil - ma’rifatni milliy davlatchilik g‘oyasi bilan bog‘lash. 1917-yilda Qo‘qonda e’lon qilingan Turkiston muxtoriyati jadidlarning nazariy qarashlari amaliy siyosiy shaklga kirgan urinish edi. Jadid harakati 1930-yillardagi qatag‘on

(cc) BY

natijasida zo‘rlik bilan to‘xtatildi, ularning merosi esa uzoq yillar yashirin saqlandi. Mustaqillik sharoitidagina bu meros tiklandi va haqqoniy baholana boshladi [8; 14].

3. Nazariy-metodologik uyg‘unlik: qiyosiy tahlil

Jadidchilik ma’rifatparvarligi va Uchinchi Renessans konsepsiyasi bir xil tarixiy sharoitda yuzaga kelmagan, shuning uchun ular o‘rtasida farqlar mavjud. Biroq g‘oyaviy yadro, maqsad va qadriyatlar darajasida ularning chuqur uyg‘unligi kuzatiladi. 1-jadvalda ikki hodisaning asosiy xususiyatlari qiyosiy tarzda keltirilgan.

Jadidchilik ma’rifatparvarligi va Uchinchi Renessansning qiyosiy tahlili

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, har ikki hodisa o‘rtasidagi uyg‘unlik, avvalo, ontologik asosda, ya’ni taraqqiyotning boshlang‘ich sharti sifatida inson va uning bilimi tan olinishida namoyon bo‘ladi. Ikkinchidan, ular gnoseologik jihatdan bir-biriga yaqin: ikkalasida ham bilim, ilm-fan va ta’lim jamiyatni yangilovchi kuch sifatida talqin qilinadi. Uchinchidan, aksiologik jihatdan ular milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg‘unligiga tayanadi. To‘rtinchidan, metodologik jihatdan har ikki yondashuv meros va yangilanishni bir-biriga qarama-qarshi emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi kategoriyalar sifatida ko‘radi.

Shu bilan birga, muhim farqlar ham mavjud. Birinchidan, jadidchilik asosan ziyolilarning shaxsiy va jamoatchilik tashabbusi sifatida davlat qo‘llovisiz, ko‘pincha mustamlakachilik sharoitidagi cheklovlar ichida faoliyat yuritgan. Uchinchi Renessans esa davlat siyosati darajasida, institutsional va huquqiy asosda amalga oshirilmoqda. Ikkinchidan, jadidlar uchun asosiy vazifa savodsizlik va turg‘unlikni bartaraf etish bo‘lgan bo‘lsa, bugungi vazifa innovatsion iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt davrida raqobatbardosh inson kapitalini shakllantirishdir.

Uchinchidan, jadidlar millatning siyosiy taqdiri masalasini ham bevosita ko‘targan, Uchinchi Renessans konsepsiyasida esa asosiy urg‘u ilmiy-ma’naviy yuksalish va barqaror taraqqiyotga qaratiladi.

Ana shu farqlarga qaramay, jadidchilik Uchinchi Renessans uchun uch jihatdan metodologik namuna vazifasini o‘taydi. Birinchisi - g‘oyaviy-axloqiy jihat: jadidlarning fidoyiligi, millat taqdiriga daxldorlik hissi, ilm yo‘lida jonbozlik ko‘rsatish namunasi bugungi yoshlar tarbiyasi uchun muhim axloqiy andoza hisoblanadi. Ikkinchisi - pedagogik-metodik jihat: shaxsni bilim, axloq va amaliy ko‘nikmalar birligida tarbiyalash, o‘qitishda yangi usullarni izlash tajribasi hozirgi ta’lim islohotlariga mos tushadi. Uchinchisi - madaniy-siyosiy jihat: jadidlar milliy o‘zlikni yo‘qotmagan holda modernizatsiyaga erishish mumkinligini nazariy va amaliy jihatdan isbotlab berdi.

4. Jadidchilik tajribasini Yangi O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish yo‘nalishlari

Jadidchilik ma’rifatparvarligining tajribasini bugungi sharoitga moslashtirish mexanik ko‘chirish emas, balki ijodiy qayta talqin qilish orqali amalga oshirilishi kerak. Quyidagi yo‘nalishlar eng muhim hisoblanadi.

(cc) BY

Birinchi yo‘nalish - ta’lim tizimi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va 2030-yilgacha xalq ta’limi tizimini rivojlantirish konsepsiyasi ta’lim sifatini oshirish, maktabgacha ta’lim qamrovini kengaytirish, pedagoglarning kasbiy mahoratini rivojlantirishni ko‘zda tutadi [6; 7]. Jadid maktablarining o‘quvchi ehtiyojiga yo‘naltirilgan, tushunib o‘qitishga asoslangan usuli bu islohotlar uchun metodik manba bo‘la oladi. Bunda, ayniqsa, savodxonlik, tabiiy fanlar, chet tillari va axloqiy tarbiya birligi tamoyilini hisobga olish maqsadga muvofiq.

Ikkinchi yo‘nalish - ma’naviy-axloqiy tarbiya. Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida bayon etilgan jismoniy, aqliy, axloqiy tarbiya tizimi zamonaviy pedagogika nuqtai nazaridan ham dolzarbligicha qolmoqda [10]. Bu tizim yoshlarda mafkuraviy immunitet va axborot madaniyatini shakllantirishda foydalanilishi mumkin. Ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlar keng tarqalgan sharoitda tanqidiy fikrlash va axborotni baholay olish ko‘nikmalarini shakllantirish jadidlarning “ma’rifat orqali ozod fikr” g‘oyasi bilan uyg‘un.

Uchinchi yo‘nalish - til va matbuot siyosati. Jadidlar milliy tilni taraqqiyot vositasi, ilm va madaniyat tili sifatida rivojlantirishga katta e’tibor qaratgan. Bugungi kunda davlat tilining ilm-fan, texnologiya va raqamli muhitdagi mavqeini mustahkamlash, ilmiy va ommabop nashrlar sifatini oshirish bu an’ananing davomi sifatida baholanishi mumkin. Ma’rifiy yo‘nalishdagi ommaviy axborot vositalari, onlayn platformalar jadid matbuotining “jamiyatni uyg‘otish” vazifasini yangi shaklda davom ettirishi mumkin.

To‘rtinchi yo‘nalish - ayollar va yoshlar siyosati. Jadidlarning qizlar ta’limi va ayollarning ijtimoiy faolligi haqidagi qarashlari zamonaviy gender tengligi, ayollarning ilm-fan va tadbirkorlikdagi ishtirokini kengaytirish siyosati bilan hamohangdir. Yoshlarni ilm-fanga, innovatsiyaga jalb qilish, ularda mas’uliyat va vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda jadidlar timsoli ibratli namunadir.

Beshinchi yo‘nalish - davlat va jamiyat hamkorligi. Jadidlar faoliyatida jamoatchilik mablag‘lari va xayriya tashabbuslari muhim o‘rin tutgan edi. Bugungi kunda ham ma’rifiy, ilmiy va madaniy loyihalarda nodavlat tashkilotlar, tadbirkorlar va fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini kuchaytirish Uchinchi Renessans g‘oyalarini amalga oshirishda muhim omil bo‘ladi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson huquqlari, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishga oid normalarning mustahkamlanishi ham bu jarayonga huquqiy zamin yaratadi [1].

5. Muammolar va istiqbollar

Jadidlar merosini Uchinchi Renessans doirasida qo‘llashda bir qator muammolar mavjud. Birinchidan, jadidchilik ko‘p hollarda soddalashtirilgan va ommalashgan shaklda, asosan, bayram va xotira tadbirlari doirasida targ‘ib qilinadi; ularning asarlari mazmunini chuqur tahlil qilish va o‘qitish yetarli emas. Ikkinchidan, jadidlar merosini o‘rganishda arxiv hujjatlari, ayniqsa, xorijdagi hujjatlar va jadid matbuoti to‘plamlari

(cc) BY

to‘liq tizimlashtirilmagan. Uchinchidan, jadidlarni “yagona g‘oyaviy yo‘nalish” sifatida talqin qilish tendensiyasi mavjud; holbuki, ular orasida siyosiy va g‘oyaviy qarashlar nuqtai nazaridan farqlar bo‘lgan. To‘rtinchidan, jadidchilik g‘oyalarini yoshlarga yetkazishda zamonaviy raqamli usullardan yetarli foydalanilmayapti.

Bu muammolarni hal etish istiqbollari quyidagilarda ko‘rinadi: jadid merosini o‘rganishning fanlararo (tarix, pedagogika, filologiya, falsafa, sotsiologiya) yondashuvini kuchaytirish; jadid matbuoti va arxiv hujjatlarini raqamlashtirib, ochiq elektron platformada joylashtirish; jadidshunoslikda xalqaro hamkorlikni kengaytirish; yosh olimlar uchun maxsus ilmiy grantlar tashkil etish.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi. Birinchidan, jadidchilik ma’rifatparvarligi va Uchinchi Renessans konsepsiyasi o‘rtasida inson omiliga tayanish, ilm-fan va ta’limni taraqqiyot asosi deb bilish, meros va yangilanish uyg‘unligi kabi tamoyillar darajasida chuqur nazariy-metodologik uyg‘unlik mavjud. Ikkinchidan, ular orasidagi farqlar (tashabbus subyekti, tarixiy sharoit, vazifalar mazmuni) bu uyg‘unlikni inkor etmaydi, aksincha, jadidchilikning bugungi sharoitda ijodiy davom ettirilishi zarurligini ko‘rsatadi. Uchinchidan, jadidchilikni Uchinchi Renessansning bevosita tarixiy-ma’naviy ildizi sifatida talqin qilish ilmiy jihatdan asosli, chunki jadidlar Birinchi va Ikkinchi Renessanslar an’analarini XX asr boshlaridagi yangi sharoitda davom ettirgan.

Tadqiqot asosida quyidagi takliflar beriladi:

1) Umumiy o‘rta ta’lim va oliy ta’limda “Jadidshunoslik” moduli yoki maxsus kursini joriy etish, unda jadidlarning asarlari matniy tahlil usulida o‘rgatilishi;

2) Pedagoglarni qayta tayyorlash tizimida jadid maktablari metodikasi va A.Avloniy tarbiya tizimini amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘rgatish;

3) Jadid matbuoti va arxiv hujjatlarining raqamli kutubxonasini yaratish va uni ilmiy tadqiqotchilar uchun ochiq qilish;

4) Uchinchi Renessans konsepsiyasining ilmiy-nazariy asoslariga bag‘ishlangan fanlararo tadqiqot dasturini ishlab chiqish, unda jadidchilik merosini muhim yo‘nalish sifatida kiritish;

5) Yoshlar bilan ishlashda jadidlar hayoti va faoliyatiga oid zamonaviy multimedia va interaktiv resurslarni yaratish, ularni ijtimoiy tarmoqlarda keng targ‘ib qilish;

6) Jadidlar merosiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy anjumanlar, yosh tadqiqotchilar tanlovlari va grant loyihalarini muntazam tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir, 2023-yil 30-aprel referendumida qabul qilingan). - Toshkent: O‘zbekiston, 2023.

(cc) BY

2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2022.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”.

7. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi ORQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.

8. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

9. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. - Toshkent: Ma’naviyat, 1999.

10. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. - Toshkent: Ma’naviyat, 1992.

11. Fitrat A. Tanlangan asarlar. 1-4-jildlar. - Toshkent: Ma’naviyat, 2000-2006.

12. Qosimov B. va boshq. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. - Toshkent: Ma’naviyat, 2004.

13. Khalid A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. - Berkeley: University of California Press, 1998.

14. Khalid A. Making Uzbekistan: Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR. - Ithaca: Cornell University Press, 2015.

15. Gadamer H.-G. Truth and Method. - London: Continuum, 2004.

(cc) BY